

INGLIZ TILI DARSIDA GURUHLAR BILAN ISHLASHNING O'RNI

Kimsanova Nozima Maxfuzullo qizi
a student of Fergana State University

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darsida kichik guruhlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakillantirishning ahamiyati va bolalarda o'zlariga bo'lgan ishonch va tilga bo'lgan ishtiyoqni rivojlantirishning bir necha samarali usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: jamoaviylik, ijtimoiy muhit, ijtimoiy faollik, samaradorlik, interfaol metod, qobiliyat, hamkorlik, faollar, do'stona birlik.

Abstract: This article highlights the importance of developing small group skills in the English class and some effective ways to develop children's self-confidence and enthusiasm for the language.

Key words: collectiveness, social environment, social activity, efficiency, interactive method, ability, cooperation, activists, friendly unit.

Аннотация: В этой статье подчеркивается важность развития навыков работы в малых группах на уроках английского языка и некоторые эффективные способы развития у детей уверенности в себе и энтузиазма по отношению к языку.

Ключевые слова: коллективность, социальная среда, социальная активность, эффективность, интерактивный метод, способность, сотрудничество, активисты, дружественный отряд.

Jamoaviylik insoniyat erishgan eng muhim yutuqlardan biridir. Chunki usiz shaxs o'zini identifikatsiya qilishi oson emas va shu boisdan ko'pchilik bolalar o'z qobiliyatlarini aynan jamoada namoyon etadi va yangidan yangi qobiliyat va imkoniyatlarini kashf etadi. Ammo jamoa birdaniga shakllanmaydi. Vaqt o'tgan sayin ularning hamjihatligi oshib boraveradi. Jamoa – bu bolalar va o'smirlarning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladigan tabiiy ijtimoiy muhit. Jamoa (A.S.Makarenko ta'biri bilan aytganda)fuqarolik xulq-atvori tajribasini to'plash va rivojlantirish uchun o'ziga xos „sport zali“dir. Jamoa shaxsning ma'naviy –axloqiy rivojlanishiga, mehnatni tashkil etishning jamoaviy shakllarida ishtirot etish tajribasini shakllantirishga hissa qo'shadi.

Bu jamoaviylik usuli ingliz tilini o'qitishda ham o'z samarasini beradi. Hozirgi zamonaviy olamda sinf mashg'ulotlarini, ayniqsa ingliz tili darslarini ijodkorona yondashish , interfaol metodlardan foydalanish va o'qitish bilan ko'ramiz. Pedagog-o'qituvchilar bilim, salohiyat, mahorat va qobiliyatlarini ishga solgan holda dars-mashg'ulotlari uchun o'z usul va prinsiplarini tanlaydilar va usullarning qay darajada samaradorligi dars yakunida o'quvchilarning dars davomida erishgangan ko'rsatkichi asosida belgilanadi. Bundan ko'rindiki, dars sifatini oshirishda qo'llanilgan metod va tamoyillar asosiy o'rinni egallaydi. Makarenko jamoani bejizga "sport zali" ga o'xshatmagan. Barchamizga malumki, sport zalida hamma har xil sport turlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etadi. Kimsidir basketbolda, kimsidir tennisda va yana kimsidir shaxmat o'ynashda yaxshi va o'quvchilar bilmagan narsalarini erkin o'z tengdoshlaridan va murabbiyidan ko'rib, amaliyotda sinab tez fursatda o'rganishi mumkin. Ingliz tili ham huddi shunday. O'rganilishi kerak bo'lган narsalar juda ham ko'p va ba'zan maktab darsligida bir soat uchun mo'ljallangan mavzuga ham vaqt yetmasligi mumkin. Shuning uchun darsni qisqa muddatda va puxta o'rganishning eng samarali va zamonaviy usuli bu jamoa bilan birgalikda ishlashdir. Chunki hamkorlikka asoslangan o'quvchilarning faolligini oshirishga mo'ljallangan , o'quvchilarni boshqalarning fikrini eshitish, tushunish , hurmat qilish , o'zgalar manfaatlari bilan hisoblashish , ulardan o'rganish , ularga o'rgatish, ta'sir qila olish, o'zining va boshqalarning „men“ligini sezish , his qiish o'zini boshqarish, fikrini lo'nda, puxta va aniq bayon qila olishga o'rgatishga qaratilgan interfaol o'qitish usullari tez rivojlanib , ijobiy samara bermoqda.

Bugungi kunda pedagog olimlar bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi ikki bosqichga bo'ladi:

- jamoani dastlabki jipslashtirish;
- jamoani shakllantirish – uning har bir a'zosini individual rivojlantirishning asosidir.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergen edi. U jamoada shakllangan quyidagi eng muhim belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

1. Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi ;
2. O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushinish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr qiymatini anglash;
3. Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik ;
4. Tartibli , ishchan harakatga yo'llovchi faollik;
5. O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

Jamoani uyishtirish va jipslashtirish unda faollarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadroслинин танлашдан бoshланади. Ishonchli , ishchan faollarni tanlash uchun o'qituvchi bolalarning ijtimoiy faolligi, ularning xulq-atvorini kuztib borishi zarur va bolalar jamoasida faol rahbarligida birining boshqasidan ustun kelishiga olib kelmasligi zarur. Shu bois o'qituvchi faolni qanday ish yuritishini kuzatib, nazorat qilmog'i lozim.

Jamo – o'quvchilarning bilim va saviyasi oshirish uchun qulay imkoniyat. Chunki , qachonki o'qituvchi jamoaga topshiriq berganda bolalarda avtomatik ravishda “critical thinking ” jarayoni boshlanadi va har jamoa bilan ishlaganlarida fikrlash doiralari oshib boraveradi. Albatta , jamoada baxsli, muammoli vaziyatlar juda ko'p uchraydi.

Baxsli, muammoli vaziyat – insonning faoliyati davridagi fikrlash natijasiga bog'liq bo'lib , qoladigan murakkab holatga yoki sharoitga tushib qolishdir. Bunday holatda u hodisa yoki jarayonni qanday izohlashni bilmaydi. Baxsli , muammoli vaziyatlar o'quvchilarning aqliy kuchini zo'riqtiradi, u vaziyatni oydinlashtirish uchun yo'llar qidira boshlaydi, qiyinchiliklar bilan to'qnashadi.

Odam qachonki muammoga duch kelganda fikrlay boshlaydi. O'zida mavjud fikr va bilimlarni amallarga ko'chiradi. O'z saviyasi va darajasidan kelib chiqqan holda masalaga yechim beradi.

O'quvchilar har bir bajargan topshiriqlarini o'z so'zlari orqali ifodalab berishlari lozim va bu topshiriq jarayonida o'quvchilar o'z erkinliklarini ko'rsatishadi. Chunki o'quvchilar o'z tengqurlari orasida fikr va g'oyalarini erkin bayon eta olishadi. Agar o'quvchilarning erkinligiga dahl qilinmasa, ularda shaxsga hurmat tuyg'usi paydo bo'ladi. Bunday tashqari jamoaning rivojlanishi uchun bir qancha usullar va bosqichlar mavjud va bizga ulardan to'rt bosqich zarur.

Birinchi bosqichda o'qituvchi o'quvchilar bilan bevosita aloqada bo'lib jamoa oldiga muhim maqsad va vazifalar qo'yadi va ularni taqsimlaydi va bu jarayonda jamoa faollarining shakllanishiga alohida e'tibor qaratadi.

Ikkinci bosqichda o'zini o'zi boshqarish o'rgani faol ishlay boshlaydi. O'qituvchi bolalarga faollikni yuqtiradi. Jamoa faollari jamoa a'zolariga ba'zi talablarni qo'yadi.

Uchinchi bosqichda esa jamoa umumiy holda jamoaning har a'zosidan muayyan tarzdagi faoliyatni olib borishni talab qiladi.

So'nggi bosqichda esa jamaoaning har bir a'zosi o'z oldiga jamoa manfaatarini ifoda etuvchi talablarni qo'yishi lozim.

Xulosa qiganda, ingliz tili darsida jamoa bian ishlash orqali o'zaro muntazam axborot almashinuvini, g'oya va fikrlarni yig'ish va o'rtoqlashsishni ta'minlashimiz mumkin. Shuningdek jamoada axborot almashinushi keng, bolalar ozmi-ko'pmi o'z fikrlariga ega va bu fikr va takliflar guruhda tanqid natijasida saralanadi. Bolalarda nutq so'zlash, o'z fikrini asoslab berishga bo'lgan qobiliyat shakilanadi, mustaqil fikrlash, muammolarni yechish va tilga bo'lgan ishtiyoqi yanada ortadi.

REFERENCES:

1. Nodira O'. A." Darslarni tashkil qilishda kichik guruqlar bilan ishlash". Ta'lim fidoyilar, 2181-2160, 182-bet.
2. B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova, U.Q.Maqsdov, M. A.Qo'chqorova, Z.M.Sidikovalar, "Umumiy pedagogika" Darslik, "Classic" nashriyoti-2022.-240 b, 128-129-betlar.
3. Baxtiniso S.Sh. "Ingliz tiini o'qitish jarayonida tamoyillar va metodlarning o'rni". "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali, 17-son, 40-bet.
4. Jalolov J. "Ingliz tilini o'qitish metodikasi" (darslik)T.-2012.
5. Z. M. Bobur nomidagi andijon davlat universiteti "Umumiy pdagogika ". "Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi.